Период вращения Меркурия вокруг Солнца равен 88 земным суткам (значит продолжительность года на планете 88 земные сутки)

$$T_{\text{меркурий}} = 88 \text{ Земные сутки},$$

а период вращения планеты вокруг своей оси равен 58,65 земным суткам (значит продолжительность сутки на планете 58,65 земные сутки)

$$T = 58,65 \text{ Земные сутки}$$

Из выше сказанного видно, что продолжительность года и сутки также неодинаково во всех планетах. Например, продолжительность года в Меркурий почти в 4 раза меньше продолжительности года в Земле.

Полученными данными (длина орбиты и период вращения Меркурия вокруг Солнца) можно определить орбитальную скорость Меркурия, по которому она движется по своей орбите, формулой определения скорости. Меркурий самая близкая планета к Солнцу, из-за этого сила притяжения между ними огромная, поэтому орбитальная скорость также большая:

$$v_{\text{меркурий}} = \frac{L_{\text{орбита}}}{T} = \frac{364240000 \text{ км}}{88 \cdot 86400 \text{ с}} = 48 \frac{\text{км}}{\text{с}}$$

Напомним, что 1 сутка равен 86400 секундам.

Взяв во внимание эти данные, можно определить космические скорости на поверхности планеты (космические скорости для планет имеет разные значения, потому что ускорения свободного падения и размеры планет неодинакова) по следующим формулам:

$$v_I = \sqrt{g \cdot R} = \sqrt{3,77 \frac{\text{м}}{\text{с}^2} \cdot 2439000 \text{ м}} = 3032 \frac{\text{м}}{\text{с}} \approx 3 \frac{\text{км}}{\text{с}}$$

$$v_{II} = \sqrt{2 \cdot g \cdot R} = \sqrt{2 \cdot 3,77 \frac{\text{м}}{\text{с}^2} \cdot 2439000 \text{ м}} = 4275 \frac{\text{м}}{\text{с}} \approx 4,28 \frac{\text{км}}{\text{с}}$$

Последние исследования учёных показали, что Меркурий имеет неплотную атмосферу, потому что планета имеет небольшую массу, а состав которого состоит только из гелия. Атмосферное давление на поверхности планеты в 500000 раз меньше земного (атмосферное давления на поверхности нашей планеты равен 760 мм.рт.ст. или 101325 Па).

$$P_{\text{меркурий}} = \frac{P_{\text{земля}}}{500000} = \frac{101325 \text{ Па}}{500000} = 0,2 \text{ Па}$$

Таким образом, одной из форм привлечения студентов к самостоятельной творческой деятельности является выполнение ими вычислительных работ, позволяющих углубить теоретические знания и применить их для решения практических задач. Такой метод обучения способствует реализации следующей цели: формирует у студентов необходимую систему знаний, навыков и обеспечивает высокий уровень саморазвития, а также развития к самообучению.

Как показала практика, межпредметная интеграция успешно способствовала повышению теоретических и практических знаний студентов вуза, в рамках которой на основе познавательной деятельности создаются возможности и для формирования конкурентоспособности молодых людей.

Список использованной литературы

1. Д.И.Камолова. Популярная астрономия. Типография Лидер Пресс. Ташкент, 2009. стр. 106-107.
2. М.Мамадазимов, Б.Ф.Избосаров, И.Р.Камолов. Астрономия. Типография «Сано-стандарт», Ташкент, 2013. стр. 72-74.
3. I.R.Kamolov, D.I.Kamolova, S.S.Kanatbayev, B.T.Bisenova, G.I.Sayfullayeva, S.T.Barakayeva, B.Dj.Sattorova "Obshaya astronomiya" darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyrug'i)
4. I.R.Kamolov, D.I.Kamolova, G.I.Sayfullayeva, A.R.Sattorov, S.T.Barakayeva, S.N.Hamroyeva, O.X.Avezmurodov "Astronomiya o'qitish metodikasi" darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 30 dekabrdagi 429-sonli buyrug'i),
5. I.R.Kamolov, D.I.Kamolova, G.I.Sayfullayeva, S.T.Barakayeva, A.B.Narbayev, A.M.Tillaboyev "Umumiy astronomiya" darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 30 dekabrdagi 429-sonli buyrug'i)



JOINT ONE-DIMENSIONAL INVERSE DYNAMIC PROBLEMS FOR SYSTEMS OF HYPERBOLIC EQUATIONS

U.H. Bektosheva¹

Karshi State University

KEYWORDS

pore-elasticity, exact problem, inverse problem, wave equation, dynamic problem, NE wave, continuity, correctness, Darboux problem, Volterra integral equation, canonical form, uniqueness of solution, stagnation

ABSTRACT

Joint one-dimensional inverse dynamic problems in the porous-elastic medium are considered: for the two-dimensional porous-elastic equation representing the propagation process of the NE wave in the porous half-space, the momentum acting only on the depth and at the boundary of the half-space the problem of determining one of the four parameters of the medium structure independent of the unknown shape of the point source is considered. It has been proved that under certain assumptions about the structure of the source and environment, both one-dimensional unknown functions are single-valued given the displacement of the boundary points. The stability estimates of the solution of the problem are presented.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.8351156

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Karshi State University, Karshi, Uzbekistan (umidabektosheva@gmail.com)

GIPERBOLIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN BIRGALIKDAGI BIR O'LCHAMLI TESKARI DINAMIK MASALALAR

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

g'ovak-elastiklik, to'g'ri masala, teskari masala, to'liqin tenglamasi, dinamik masala, SH to'liqin, uzluksizlik, korrektlik, Darbu masalasi, Volterra integral tenglamasi, kanonik ko'rinish, yechim yagonaligi, turg'unlik

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

G'ovak-elastik muhitda birgalikdagi bir o'lchamli teskari dinamik masalalar qaralgan: g'ovak yarim fazoda SH to'liqinni tarqalish jarayonini ifodalaydigan ikki o'lchamli g'ovak-elastik tenglama uchun faqat chuqurligiga va yarim fazoning chegarasida ta'sir etuvchi impuls nuqtali manbaning noma'lum shakliga bog'liq bo'lmagan muhit strukturasi to'rtta parametridan bittasini aniqlash haqidagi masala qaralgan. Isbotlanganki, manba va muhit strukturasi tuzilishi haqidagi ma'lum bir farazlarda ikkala bir o'lchovli noma'lum funksiyani ikkalasi ham chegara nuqtalarining siljishi berilishi bilan bir qiymatli aniqlanadi. Masala yechimining turg'unlik baholari keltirilgan.

MASALANING QO'YILISHI

$$G = R_+^2 \times R, \quad R_+^2 = \{(x, y) \in R^2 \mid y > 0\} \quad \text{yarim fazoda } u(x, y, t), \quad v(x, y, t)$$

funksiyalarga nisbatan

$$\rho_s u_{tt} = (\mu u_x)_x + (\mu u_y)_y - b \rho_l (u_t - v_t), \quad (x, y, t) \in G, \quad (1)$$

$$\rho_l v_t = b \rho_l (u - v), \quad (x, y, t) \in G \quad (2)$$

differensial tenglamalar sistemasini qaraylik. $\mu = \mu(y), \rho_s = \rho_s(y)$ koeffitsientlari $C^2(R_+)$ sinfda musbat funksiya, $b = \chi \rho_l, \chi = \chi(y), \rho_l = \rho_l(y)$ esa $C^1(R_+)$ sinfda musbat funksiyalar. $R_+ = \{x \in R \mid x > 0\}$.

Aytaylik, $u(x, y, t), v(x, y, t)$ funksiyalar (1),(2) tenglamadan tashqari quyidagi boshlang'ich chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin:

$$u|_{t>0} \equiv 0, \quad v|_{t<0} \equiv 0. \quad (3)$$

$$\mu u_y|_{y=0} = f(t) \delta(x), \quad f(t) \equiv 0, \quad t < 0, \quad (4)$$

Berilgan $b(y), \mu(y), \rho_s(y), f(y)$ funksiyalarga ko'ra (1)-(4) masala korrekt bo'lib, ixtiyoriy chekli t larda kompakt tashuvchiga ega bo'lgan $u(x, y, t), v(x, y, t)$ funksiyalarga nisbatan aniqlaydi.

Masalan, geofizikada sohaning chegarasida muhit nuqtalarining siljish o'zgarishi bo'yicha

$$u|_{y=0} = F(x, t), \quad (x, t) \in R_+^2 \quad (5)$$

muhitning strukturasi (bu holda $b(y), \mu(y), \rho_s(y)$ funksiyalar) aniqlash masalasi muhim hisoblanadi.

Bu masala, suyuqlik bilan to'yintirilgan g'ovak muhitda SH to'liqinli tenglamalar

sistemasi uchun teskari dinamik masala bo'ladi. Aksariyat hollarda $f(t)$ funksiya sifatida, Dirakning $\delta(t)$ delta-funksiyasi yoki $t=0$ da chekli uzilishga ega regulyar funksiya tanlanadi.

SH to'liq tenglamalar sistemasi uchun quyidagi teskari masalalar qo'yiladi:

Masala 1. (5) ma'lumotga ko'ra (1)-(4) masaladan $\mu(y)$ va $f(t)$ funksiyalarni tiklash (bunda qolgan $\rho_s(y), b(y)$ funksiyalar ma'lum deb hisoblanadi).

Masala 2. (5) ma'lumotga ko'ra (1)-(4) masaladan $\chi(y)$ va $f(t)$ funksiyalarni tiklash (bunda qolgan $\rho_s(y), \mu(y), \rho_l(y)$ funksiyalar ma'lum deb hisoblanadi).

Masala 3. (5) ma'lumotga ko'ra (1)-(4) masaladan $\rho_s(y)$ va $f(t)$ funksiyalarni tiklash (bunda qolgan, $\mu(y), b(y)$ funksiyalar ma'lum deb hisoblanadi).

Masala 4. (5) ma'lumotga ko'ra (1)-(4) masaladan $\rho_l(y)$ va $f(t)$ funksiyalarni tiklash (bunda qolgan $\rho_s(y), \mu(y), \chi(y)$ funksiyalar ma'lum deb hisoblanadi).

Qaralayotgan teskari masalalarda ma'lumlarning ko'pchiligi (ikki bir o'zgaruvchili noma'lum bo'lgan bir paytda berilgan ma'lumotlar ikki o'zgaruvchili funksiyadan iborat) bu masalani yechish mumkinligi bildiradi. Albatta, bu yerda ham $f(t)$ funksiyaning strukturasi haqida oldindan ma'lum bo'lgan ba'zi bir aprior farazlarsiz masalani yechib bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, agar $f(t) \equiv 0$ bo'lsa, u holda $F(x, t) \equiv 0$ bo'ladi va g'ovak-elastik dinamik tenglamaga qatnashgan koeffitsiyentlarni topish mumkin emas.

$f(t)$ funksiya quyidagicha

$$f(t) = a\delta(t) + \hat{f}(t)\theta(t), a \neq 0, \quad (6)$$

ko'rinishga ega, bunda $\theta(t)$ -Xevisayda funksiya, $t \geq 0$ da $\theta(t) = 1$, $t < 0$ da $\theta(t) = 0$
 $\hat{f}(t) \in C^1[0, T], T > 0$.

Shuningdek $b(y), \mu(y), \rho_s(y)$ funksiyalar R_+^2 yarim fazoning chegarasining yaqinida yetarlicha kichik yupqa qatlam $y \in [0, y_0], y_0 > 0$ da ma'lum deb faraz qilamiz.

Yuqoridagi farazlarga ko'ra $(x, t) \in \times [0, T], T > 0$ nuqtalar to'plamida $F(x, t)$ funksiyaning berilishiga ko'ra 1-4 masalalarning biror chekli $[y_0, y_1]$ intervalda yechimini topish imkonini beradi. Shuningdek bu masalalarning yechimi turg'unligi baholari olindi.

(1)-(4) masalani y koordinata o'rniga z koordinataga ushbu

$$z = \int_0^y \frac{d\xi}{c_s(\xi)}$$

bunda $c_y = \sqrt{\mu(y)/\rho_s(y)}$ -g'ovak muhitda ko'ndalang seysmik to'liqning tarqalish tezligi, munosabatlar orqali uning ko'rinishini o'zgartiramiz.

Shunday yo'l bilan z koordinataga o'tilgandan so'ng g'ovak muhitda seysmik to'lqin tarqalish tezligi aynan birga teng bo'lib qoladi. Hosil qilingan sistemaga x o'zgaruvchi bo'yicha Fu're almashtirishini qo'llab, (1)-(2) masala

$$u_{tt} = u_{zz} + \frac{\sigma'}{\sigma} u_z - \frac{b(z)\rho_l(z)}{\rho_s(z)} u_t + \left[\frac{b^2(z)\rho_l(z)}{\rho_s(z)} - \xi^2 c_s^2(z) \right] u + f(\xi, z, t) \quad (7)$$

$$u|_{t<0} \equiv 0, \quad u_z|_{z=0} = f(t) \quad (8)$$

$$u|_{z=0} = F(\xi, t), \quad (\xi, t) \in R_+^2 \quad (9)$$

bu yerda, $\sigma = \sqrt{\mu\rho_s}$, $f(t) = f(t)/\sigma(0)$,

$$f(\xi, z, t) = -\frac{b^3(z)\rho_l(z)}{\rho_s(z)} \int_0^t u(\xi, z, \tau) e^{-b(z)(t-\tau)} d\tau$$

ko'rinishga keladi.

(6)-(7) boshlang'ich-chegaraviy masalani yechgandan so'ng $v(x, y, t)$ funksiya sohaning bo'lagida

$$v(\xi, z, t) = b(z) \int_0^t u(\xi, z, \tau) e^{-b(z)(t-\tau)} d\tau$$

formula bilan topiladi.

$G = R_+^2 \times R$, $R_+^2 = \{(x, y) \in R^2 \mid y > 0\}$ yarim fazoda giperbolik tenglamalar sistemasi uchun qo'yilgan (1)-(4) to'g'ri dinamik masalaning yechimining turg'unlik baholarini olamiz.

Quyidagi teorema o'rinli:

Teorema. Aytaylik, $f(t)$ (6) ko'rinishda bo'lib, $T > 0$ da $f(t) \in C^1[0, T]$ va $\sigma(z) \in C^1[0, T]$ bo'lsin. U holda ξ parametrining har bir tayinlangan qiymatida $t < z$ da (7),(8) masalaning yechimi aynan nolga teng, $(x, y) \in D(T)$,

$D(T) = \{(x, t) \mid 0 \leq z \leq t \leq T - z\}$ nuqtalar uchun $C^2(D(T))$ funksional sinfga tegishli va yechim uchun

$$\|u\|_{C^2(D(T))} \leq C \left(|a| + \|f\|_{C^2[0, T]} \right)$$

baho o'rinli, bu yerda C -o'zgarimas, $T, \xi, \|\sigma\|_{C^2[0, T/2]}, \|\rho_s\|_{C^2[0, T/2]}, \|\rho_l\|_{C^2[0, T/2]}$ va $\|\chi\|_{C^1[0, T/2]}$ ga bog'liq. Shu bilan birga

$$w(\xi_1, \xi_2, z, t) = \frac{\partial^2}{\partial t^2} (u(\xi_1, z, t) - u(\xi_2, z, t))$$

Funksiya ixtiyoriy tayinlangan ξ_1, ξ_2 da $C^2(D(T))$ sinf funksiyasi boladi

Isbot (7), (8) munosabatlardan $(z,t) \in D(T)$ uchun

$$u_{tt} - u_{zz} = \left(\frac{\partial}{\partial t} - \frac{\partial}{\partial z} \right) (u_t + u_z) = \left(\frac{\partial}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial z} \right) (u_t - u_z)$$

o'rinli bo'lsa, birinchi tartibli differensial operatorlarning mos xarakteristikalari bo'yicha integrallash orqali

$$\begin{aligned} (\ddot{u}_t + \ddot{u}_z)(\xi, z, t) &= \int_z^{(z+t)/2} g(\xi, \varsigma, t + z - \varsigma) d\varsigma, \\ (\ddot{u}_t - \ddot{u}_z)(\xi, z, t) &= -2\hat{f}(t-z) + \int_0^{(t-z)/2} g(\xi, \varsigma, t - z - \varsigma) d\varsigma + \\ &+ \int_0^z g(\xi, \varsigma, t - z + \varsigma) d\varsigma, \end{aligned}$$

tengliklarni olamiz. Bunda

$$\begin{aligned} g(\xi, z, t) &= \left(\frac{\sigma'}{\sigma} u \right)_z - \frac{\chi \rho_l^2}{\rho_s} u_t + q(\xi, z) u + f(\xi, z, t), \\ q(\xi, z) &= \check{q}(\xi, z) - \left(\frac{\sigma'}{\sigma} \right)', \quad \check{q}(\xi, z) = \frac{b^2 \rho_l}{\rho_s} - \xi^2 c_s^2(z). \end{aligned}$$

bundan

$$\begin{aligned} \ddot{u}(\xi, z, t) &= -\hat{f}(t-z) + \frac{1}{2} \int_0^{(t-z)/2} g(\xi, \varsigma, t - z - \varsigma) d\varsigma + \\ &+ \frac{1}{2} \int_0^z g(\xi, \varsigma, t - z + \varsigma) d\varsigma + \frac{1}{2} \int_0^{(t+z)/2} g(\xi, \varsigma, t + z - \varsigma) d\varsigma, \end{aligned} \quad (10)$$

$$\begin{aligned} \ddot{u}_z(\xi, z, t) &= \hat{f}(t-z) - \frac{1}{2} \int_0^{(t-z)/2} g(\xi, \varsigma, t - z - \varsigma) d\varsigma - \\ &- \frac{1}{2} \int_0^z g(\xi, \varsigma, t - z + \varsigma) d\varsigma + \frac{1}{2} \int_0^{(t+z)/2} g(\xi, \varsigma, t + z - \varsigma) d\varsigma, \end{aligned} \quad (11)$$

$$\begin{aligned} \ddot{u}(\xi, z, t) &= -\frac{a}{2} - \int_0^{t-z} \hat{f}(\tau) d\tau + \frac{1}{2} \int_z^t \int_0^{(\tau-z)/2} g(\xi, \varsigma, \tau - z - \varsigma) d\varsigma d\tau + \\ &+ \frac{1}{2} \int_z^t \int_0^z g(\xi, \varsigma, \tau - z + \varsigma) d\varsigma d\tau + \frac{1}{2} \int_z^t \int_z^{(\tau+z)/2} g(\xi, \varsigma, \tau + z - \varsigma) d\varsigma d\tau. \end{aligned} \quad (12)$$

\ddot{u}_t, \ddot{u}_z funksiyalarni t o'zgaruvchi bo'yicha hosilalarini hisoblaymiz.

(10), (11) formulalardan

$$\begin{aligned} \ddot{u}_{tz}(\xi, z, t) &= \hat{f}'(t-z) - \frac{1}{4} \left(g(\xi, (t-z)/2, (t-z)/2) - g(\xi, (t+z)/2, (t+z)/2) \right) - \\ &- \int_0^{(t-z)/2} g_t(\xi, \varsigma, t - z - \varsigma) d\varsigma + \frac{1}{2} \int_0^z g_t(\xi, \varsigma, t - z + \varsigma) d\varsigma + \end{aligned}$$

$$+\frac{1}{2}\int_z^{(t+z)/2} g_t(\xi, \zeta, t+z-\zeta) d\zeta, \tag{13}$$

$$\begin{aligned} \tilde{u}_t(\xi, z, t) = & -\hat{f}'(t-z) + \frac{1}{4}\left(g(\xi, (t-z)/2, (t-z)/2) + g(\xi, (t+z)/2, (t+z)/2)\right) + \\ & + \int_0^{(t-z)/2} g_t(\xi, \zeta, t-z-\zeta) d\zeta + \frac{1}{2}\int_0^z g_t(\xi, \zeta, t-z+\zeta) d\zeta + \\ & + \frac{1}{2}\int_z^{(t+z)/2} g_t(\xi, \zeta, t+z-\zeta) d\zeta. \end{aligned} \tag{14}$$

kelib chiqadi.

(10)-(14) sistema $D(T)$ sohada Volterra tipidagi integral tenglama bo'ladi va ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi yagona yechimga ega.

$$\begin{aligned} w(\xi_1, \xi_2, z, t) = & \frac{1}{4}\left(g(\xi_1, (t-z)/2, (t-z)/2) + g(\xi_1, (t+z)/2, (t+z)/2)\right) + \\ & + \int_0^{(t-z)/2} g_t(\xi_1, \zeta, t-z-\zeta) d\zeta + \frac{1}{2}\int_0^z g_t(\xi_1, \zeta, t-z+\zeta) d\zeta + \\ & + \frac{1}{2}\int_z^{(t+z)/2} g_t(\xi_1, \zeta, t+z-\zeta) d\zeta - \\ & - \frac{1}{4}\left(g(\xi_2, (t-z)/2, (t-z)/2) - g(\xi_2, (t+z)/2, (t+z)/2)\right) - \\ & - \int_0^{(t-z)/2} g_t(\xi_2, \zeta, t-z-\zeta) d\zeta - \frac{1}{2}\int_0^z g_t(\xi_2, \zeta, t-z+\zeta) d\zeta - \\ & - \frac{1}{2}\int_z^{(t+z)/2} g_t(\xi_2, \zeta, t+z-\zeta) d\zeta. \end{aligned}$$

funksiyani qaraylik.

Bundan $w \in C^1(D(T))$ ekanligi ko'rinib turibdi. bundan tashqari, bu funksiya uchun

$$\|w\|_{C^1(D(T))} \leq C\left(|a| + \|\hat{f}\|_{C^1[0,T]}\right),$$

baho o'rinli. Bu teorema shartidagi baholashga o'xshash bo'lib C o'zgarmas faqat $T, \xi_1, \xi_2, \|\mu\|_{C^2[0,T/2]}, \|\rho_s\|_{C^2[0,T/2]}, \|\chi\|_{C^1[0,T/2]}$ va $\|\rho_l\|_{C^1[0,T/2]}$ ga bog'liq teorema isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Колмогоров А.Н., Фомин С.В. Элементы теории функций и функционального анализа. М.: Наука, 1968. 496 с.
2. Денисов. Введение в теорию обратных задач. Москва. Наука.1999 г.
3. Романов. Обратные задачи математической физики. 1984 г. Москва. Наука. 321 с.

4. Янгибоев З.Ш. Одномерные обратные динамические задачи для уравнения SH волн в пористых средах с неизвестным источником. Дис-я. 2019 г. 113 с.
5. Янгибоев З.Ш. Об устойчивости одной обратной динамической задачи для уравнения SH волн в пористом полупространстве. //УзМУ хабарлари» 2012 г. №4. сс. 11-16.
6. Бектошева У., Янгибоев З. Ш., Мастонов Ж.М., О первой задаче Дарбу для нелинейного гиперболического уравнения. Международная научно-практическая конференция. Современные научные решения актуальных проблем.10-13-бетлар.2023
7. Янгибоев З.Ш. Абдимуродова Ш.А. Бектошева У., Об устойчивости одной обратной задачи для уравнения SH волн в пористом среде. Qarshi Davlat Universiteti. “Analizning zamonaviy muammolari”ilmiy konferensiya 2-3-iyun 2023-yil.
8. <http://www.lab-m.ru/sbeilin/disser/disser.pdf>.
9. <http://www.lib.mexmat.ru/books/8036>.
10. <http://www.samdiff.ru/files/samdiff-abstracts-2011-s.pdf>



MODERN INNOVATIVE APPROACHES AND TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY: PROBLEMS AND PROSPECTS

Nurxanova Aynura Nurjanovna¹

25th secondary education school, Ministry of Preschool and School Education, Yukori Chirchik District, Tashkent Region

KEYWORDS

Biology education, Innovative teaching methods, Educational technology, Virtual laboratories, Augmented reality, Online collaboration, Teacher training, Digital divide, Ethical considerations, Future prospects

ABSTRACT

This article explores modern innovative approaches and technologies in the field of teaching biology, addressing both the challenges and promising prospects they present. The rapid advancement of technology has transformed the landscape of biology education, offering educators and students new tools and methods for enhancing the learning experience. From virtual laboratories and interactive simulations to augmented reality applications and online collaborative platforms, these innovations are revolutionizing how biology is taught. However, this transformation is not without its challenges, including the need for effective teacher training, the digital divide, and ethical considerations. This article delves into these issues, providing insights into the evolving landscape of biology education and its potential impact on future generations of students.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.8362715

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher of biology, 25th secondary education school, Ministry of Preschool and School Education, Yukori Chirchik District, Tashkent Region, Uzbekistan

BILOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

**KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Biologiya ta'limi,
Innovatsion o'qitish usullari,
Ta'lim texnologiyalari,
Virtual laboratoriyalar,
Kengaytirilgan reallik,
Onlayn hamkorlik,
O'qituvchilar malakasini
oshirish, Raqamli bo'linish,
Axloqiy mulohazalar,
Kelajak istiqbollari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola biologiyani o'qitish sohasidagi zamonaviy innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni o'rganadi, ular mavjud muammolar va istiqbolli istiqbollarni hal qiladi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi biologiya ta'limi manzarasini o'zgartirib, o'qituvchilar va talabalarga o'rganish tajribasini oshirish uchun yangi vositalar va usullarni taklif qildi. Virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalardan tortib to kengaytirilgan reallik ilovalari va onlayn hamkorlik platformalarigacha, bu innovatsiyalar biologiyani o'qitishda inqilob qilmoqda. Biroq, bu transformatsiya o'z muammolaridan xoli emas, jumladan, samarali o'qituvchilar tayyorlash zarurati, raqamli tafovut va axloqiy mulohazalar. Ushbu maqola biologiya ta'limining rivojlanayotgan manzarasi va uning kelajak avlod o'quvchilariga ta'siri haqida tushuncha berib, ushbu masalalarni o'rganadi..

KIRISH

Biologiya sohasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, yangi kashfiyotlar va yutuqlar misli ko'rilmagan tezlikda sodir bo'lmoqda. Hayotiy fanlar haqidagi tushunchamiz chuqurlashib borar ekan, biologiya ta'limi ushbu o'zgarishlar bilan hamqadam bo'lishini ta'minlash, talabalarni zamonaviy biologik dunyoning murakkabliklarida harakat qilishga tayyorlash zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, biologiyani o'qitishda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar ta'lim landshaftini inqilob qilish potentsialiga ega transformativ vositalar sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqola zamonaviy biologiya ta'limining ko'p qirrali sohasini o'rganib chiqadi va bu innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar taqdim etayotgan muammolar va istiqbolli istiqbollarni yoritadi.

Ta'limda texnologiyani qo'llash ortib bormoqda va biologiya ta'limi ham bundan mustasno emas. Haqiqiy eksperiment tajribalarini taklif qiluvchi virtual laboratoriyalardan tortib, talabalarga murakkab biologik tushunchalarni dinamik va qiziqarli tarzda o'rganish imkonini beruvchi interaktiv simulyatsiyalargacha, bu vositalar biologiya ta'limini yanada qulayroq va jozibali qilish imkoniyatiga ega. Masalan, Labster kabi platformalar biologik mavzularning keng doirasini qamrab oluvchi virtual laboratoriyalarni taklif etadi, bu esa talabalarga xavf-xatarsiz virtual muhitda tajribalar o'tkazish imkonini beradi, bu ayniqsa shaxsiy laboratoriyaga kirish imkoniyati cheklanganda qimmatli manbadir [1]. Bundan tashqari, BioMan ilovasi kabi kengaytirilgan haqiqat ilovalari raqamli va jismoniy olamlarni birlashtirib, o'quvchilarga uch o'lchamli biologik tuzilmalar bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradi, bu esa chuqurroq tushunishga yordam beradi [2].

Biroq, innovatsion texnologiyalarni biologiya ta'limiga integratsiyalash o'zining muammolaridan holi emas. O'qituvchilar ushbu yangi vositalarga moslashishlari kerak, bu ko'pincha texnologiyani o'qitish usullariga samarali kiritish uchun o'qitish va kasbiy rivojlanishni talab qiladi [3]. Talabalar o'rtasida texnologiyadan tengsiz foydalanish bilan ajralib turadigan raqamli tafovut muhim to'siq bo'lib, ta'limdagi tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin [4]. Bundan tashqari, ta'limda texnologiyadan foydalanishga oid axloqiy tashvishlar, masalan, ma'lumotlarning maxfiyligi va o'rganishni shaxsiylashtirish potentsiali ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqishni talab qiladi [5].

Ushbu maqola biologiya ta'limini qayta shakllantirayotgan zamonaviy innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan. Muammolar va istiqbollarni o'rganib chiqib, u o'qituvchilarni, siyosatchilarni va manfaatdor tomonlarni rivojlanayotgan ta'lim landshaftini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan jihozlashga intiladi. Bunda u biologiya ta'limi XXI asrda nafaqat dolzarb bo'lib qolmay, balki qiziqarli va qulay bo'lishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

ASOSIY QISM

Innovatsion pedagogik yondashuvlar

Zamonaviy biologiya ta'limi o'quvchilarni faol o'rganishga jalb qilish va biologik tushunchalarni chuqurroq tushunishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o'zgaruvchan siljishlarni boshdan kechirmoqda. Bunday yondashuvlardan biri muammoli ta'lim (PBL) bo'lib, unda talabalar o'zlarining bilimlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini integratsiyalashgan holda real dunyo biologik muammolarni hal qilish uchun hamkorlik qiladilar [6]. PBL talabalarni kelajakdagi martabalarida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aks ettiruvchi kontekstda murakkab biologik hodisalarni o'rganishga undaydi. Bundan tashqari, teskari sinf modeli mashhurlikka erishdi, bunda an'anaviy ma'ruza mazmuni onlayn tarzda o'tkaziladi, bu interfaol mashg'ulotlar va muhokamalar uchun sinfda vaqtni bo'shatadi [7]. Ushbu yondashuv talabalarga dars materialini o'z tezligida o'zlashtirishga imkon beradi, tushunish va esda saqlashni kuchaytiradi.

Onlayn platformalarning roli

Onlayn platformalar zamonaviy biologiya ta'limida bebaho vositaga aylandi. Moodle va Canvas kabi ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) kursni tashkil etish, kontentni yetkazib berish va baholashni osonlashtiradi [8]. Bu platformalar o'qituvchilarga interaktiv modullar, viktorinalar va munozara forumlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning faolligini oshirish va o'zini o'zi baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, Coursera va edX kabi Massive Open Onlayn Kurslari (MOOCs) taniqli institutlarning yuqori sifatli biologiya kurslariga kirishni taklif qiladi, bu esa global o'quvchilarga turli mavzularni o'rganish imkoniyatini beradi [9]. Onlayn platformalarning integratsiyasi o'qituvchilarga geografik chegaralarni kesib o'tish va kengroq va turli xil talabalar populyatsiyasiga erishish imkonini beradi.

Immersion texnologiyalar va simulyatsiya

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) kabi immersiv texnologiyalar biologiya ta'limida katta va'da beradi. VR muhitlari murakkab biologik tuzilmalar va ekotizimlarni takrorlashi mumkin, bu esa o'quvchilarga ilgari erishib bo'lmaydigan immersiv tajribalarni taklif qiladi [10]. Boshqa tomondan, AR ilovalari raqamli ma'lumotni jismoniy dunyo bilan aralashtirib, o'quvchilarga 3D modellar bilan o'zaro aloqada bo'lish va biologik tushunchalarni chuqurroq tushunish imkonini beradi [11]. Ushbu texnologiyalar turli xil ta'lim uslublarini qo'llab-quvvatlaydi, mavjudlik va faollikni oshiradi.

Muammolar va axloqiy mulohazalar

Ushbu innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar va'da qilinganiga qaramay, bir qator muammolarni hal qilish kerak. Birinchidan, ta'lim sohasidagi tengsizliklarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun texnologiyadan adolatli foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, texnologiyaning biologiya ta'limiga jadal integratsiyalashuvi o'qituvchilarni doimiy ravishda tayyorlash va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ma'lumotlar maxfiyligi, o'rganishni shaxsiylashtirish va texnologiyaga haddan tashqari ishonish potentsiali bilan bog'liq axloqiy muammolar ham ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar biologiya ta'limida inqilob qilishga tayyor bo'lib, istiqbolli istiqbollarni ham, muhim vazifalarni ham taklif qiladi. Muammoli ta'lim (PBL) va teskari sinf modeli kabi pedagogik yondashuvlarning qabul qilinishi o'quvchilarni faol jalb qilish va ularning murakkab biologik tushunchalarni tushunishlarini kuchaytirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Ushbu strategiyalar o'quvchilarga o'z ta'limini o'z zimmasiga olishga va tanqidiy fikrlash, tez rivojlanayotgan biologiya sohasida zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Onlayn platformalarning, jumladan, ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) va Massive Open Online Courses (MOOCs) rolini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ushbu raqamli vositalar nafaqat kurs mazmunini tashkil etish va etkazib berishni osonlashtiradi, balki geografik bo'shliqlarni ko'paytiradi va yuqori sifatli biologiya ta'limini global auditoriya uchun ochiq qiladi. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, ushbu platformalar uchun moslashtirilgan va interfaol o'rganish tajribasini taqdim etish imkoniyatlari juda katta.

Immersiv texnologiyalar, xususan virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) biologiya ta'limida o'yinni o'zgartiruvchi omil sifatida paydo bo'ldi. Talabalarga virtual muhitda murakkab biologik tuzilmalar va ekotizimlarni o'rganish imkonini berish orqali VR yanada chuqurroq ishtirok etish va tushunishni kuchaytiradi. Xuddi shunday, AR ilovalari raqamli ma'lumotlarni jismoniy dunyo bilan aralashtirib, interaktiv 3D modellar va simulyatsiyalarni taklif qilish orqali o'rganishni yaxshilaydi. Ushbu texnologiyalar turli xil ta'lim uslublarini qo'llab-quvvatlaydi, inklyuziv va immersiv ta'lim tajribasini yaratadi.

Biroq, biologiya ta'limida innovatsion yondashuv va texnologiyalarni integratsiyalash o'zining muammolaridan holi emas. Raqamli tafovutning ta'limdagi nomutanosiblikni

kuchaytirishiga yo'l qo'ymaslik uchun texnologiyadan teng foydalanishni ta'minlash juda muhimdir. Pedagoglarni ushbu innovatsiyalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihozlash uchun o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlari mustahkam bo'lishi kerak. Axloqiy me'yorlar, jumladan, ma'lumotlar maxfiyligi va texnologiyaga haddan tashqari ishonish xavfi mas'uliyatli va axloqiy foydalanishni ta'minlash uchun doimiy e'tiborni talab qiladi.

Biologiya ta'limining rivojlanayotgan landshaftini boshqarishda manfaatdor tomonlar ushbu innovatsiyalar potentsialidan foydalanish va ular keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilish o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak. Shunday qilib, biz biologiya ta'limi nafaqat dolzarb bo'lib qolmay, balki qiziqarli, qulay va talabalarni hayot fanlari sohasida kutayotgan qiziqarli imkoniyatlar va muammolarga tayyorlashga qodir bo'lgan kelajakni yaratishimiz mumkin. Rivojlanishda davom etar ekanmiz, biz biologiya ta'limini innovatsiyalar qatorida ushlab turishimiz, bu doimiy rivojlanayotgan sohada ilg'or kashfiyotlar qilish va taraqqiyotga erishish uchun jihozlangan biologlarning yangi avlodini tarbiyalashimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dennis, A., Dacosta, D., Bautista, A., & Gause, A. (2018). Teachers' beliefs about technology integration in public schools. *Journal of Educational Technology*, 15(3), 1-6.
2. Martinez-Miron, E. A., Valencia-Garcia, R., Castillo-Merino, D., & Jimenez-Perez, R. (2020). Enhancing students' understanding of biological concepts using augmented reality: A qualitative study. *Education Sciences*, 10(1), 18.
3. Selwyn, N. (2019). What's the problem with learning analytics? *Journal of Learning Analytics*, 6(3), 11-19.
4. Thomsen, L. (2019). Virtual reality and laboratory education. In S. Pawlak, A. Pietrzyk, & M. Chowaniec (Eds.), *Human-Computer Interaction: An Empirical Research Perspective* (pp. 171-184). Springer.
5. Warschauer, M., & Matuchniak, T. (2010). New technology and digital worlds: Analyzing evidence of equity in access, use, and outcomes. *Review of Research in Education*, 34(1), 179-225.
6. Abeysekera, L., & Dawson, P. (2015). Motivation and cognitive load in the flipped classroom: Definition, rationale, and a call for research. *Higher Education Research & Development*, 34(1), 1-14.
7. Bonk, C. J., & Khoo, E. (2014). Adding some TEC-VARIETY: 100+ activities for motivating and retaining learners online. OpenWorldBooks.com.
8. Dochy, F., Segers, M., Van den Bossche, P., & Gijbels, D. (2003). Effects of problem-based learning: A meta-analysis. *Learning and Instruction*, 13(5), 533-568.
9. Martinez-Miron, E. A., Valencia-Garcia, R., Castillo-Merino, D., & Jimenez-Perez, R. (2020). Enhancing students' understanding of biological concepts using augmented reality: A qualitative study. *Education Sciences*, 10(1), 18.

10. Wang, X., Koenig, A., Pike, A., Patel, R., Cao, Y., & Chu, M. (2018). Virtual reality in education: A tool for learning in the experience age. In Proceedings of the 2018 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems (pp. 1-10).

11. Warschauer, M., & Matuchniak, T. (2010). New technology and digital worlds: Analyzing evidence of equity in access, use, and outcomes. *Review of Research in Education*, 34(1), 179-225.



A STUDY ON THE ANALYSIS AND RECOGNITION OF AN OBJECT IN AN IMAGE USING SCORING METHODS

Sh. Abduvaxobova¹

Independent researcher

KEYWORDS

Linear dimension, image processing, symbol recognition, estimation methods, basis set system, similarity function, fixed basis set system

ABSTRACT

In the article, the problem of restoration of defects found in image elements is considered in the section of the algorithm for calculating grades.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.8363075

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Independent researcher, Uzbekistan

BAHOLARNI HISOBLASH USULLARI YORDAMIDA TASVIRDAGI OBYEKTNI TAHLIL QILISH VA UNI ANGLAB OLIISH BO'YICHA TADQIQOTLAT

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Chiziqli o'lcham, tasvirlarni qayta ishlash, timsollarni anglab olish, baholarni hisoblash usullari, tayanch to'plamlar tizimi, o'xshashlik funksiyasi, fikserlangan tayanch to'plam tizimi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada tasvir elementlarida uchraydigan nuqsonlarni qayta tiklash masalasi baholarni hisoblash algoritmi kesimida ko'rib chiqilgan.

Tasvir elementlari chiziqli o'lchamlarining boshqa munosabatlari qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [1]. Lekin baribir qo'lyozma matnlarni tanib olish texnologiyasini ishlab chiqishda ko'p tadqiqotlarning asosiy bosqichlardan o'tilg'nligini tan olish lozim.

Tasvirlar bilan bog'liq masalalarning aksariyatida tasvirdagi obyektning tahlil qilish va uni anglab olish muammolari hal etiladi. Masalan, qo'lyozmali ma'lumotlarni qayta tiklash, harakatdagi avtomobil raqamini aniqlash (anglab olish), va h.k.

Tasvirdagi obyektlarni anglab olish uchun esa, timsollarni anglab olish usullarini bilish talab etiladi. Timsollarni anglab olish masalalarida bir nechta usullar qo'llaniladi. Masalan:

- potensial funksiyalarga asoslangan usullar;
- bo'linish qoidasiga asoslangan usullar;
- statistik usullar;
- baholarni hisoblash usullari (ovoz berish);
- algebraik logikaga asoslangan usullar [2].

Demak, tasvirlardagi obyektlarni avtomatik anglab olish masalalarini hal etishda asosan ikkita katta ilmiy soha usullarini bilish lozim bo'lar ekan. Bular – tasvirlarni qayta ishlash va obrazlarni anglab olish usullaridir.

Masalani hal etishda birinchi bosqichda qilinadigan ish – bu tasvirlarni qayta ishlash orqali obyekt belgilarini ajratib olishdir. Ikkinchi bosqichda ajratib olingan belgilarni tahlil qilish orqali obyekt anglab olinadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, obyektning anglab olish natijasining ishonchliligi birinchi bosqichda olinadigan natijalarga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun, tasvirlarni qayta ishlash va ular asosida obyekt belgilarini aniqlashda masala mohiyatidan kelib chiqqan holda usullarni tanlash hamda ular asosida ishonchli algoritmlarni yaratish talab etiladi.

Baholarni hisoblashga asoslangan (ovoz olish) modellar qisman foizlash usuliga asoslangan. Aniqlanish kerak bo'lgan obyekt va obyektlarning qisman ma'lumotlari

orasidagi "yaqinlik" tahlil qilinadi. Yaqinlik bahosi to'plami bo'yicha obyektning biror sinfga tegishlilik funksiyasi hosil bo'ladi va sinflar uchun aniqlanuvchi obyektning umumiy bahosi hisoblanadi.

Bahoni hisoblash algoritmi oltita asosiy bosqichdan iborat [3].

1. Tayanch to'plamlar tizimi. $\{1, 2, \dots, n\}$ to'plamlarning barcha mumkin bo'lgan to'plam ostilari N^{\sim} ko'rib chiqiladi. Bu qism to'plamlarning barchasining yig'indisini Ω orqali belgilanadi. Bahoni hisoblash algoritmining birinchi bosqichida \mathbb{A} to'plamlar tizimi aniqlanadi. Bu to'plamlar tizimini tayanch.

to'plam (TT)lar tizimi deb ataladi.

- a) barcha elementlar to'plami \mathbb{A} - bir xil quvvatga ega;
- b) \mathbb{A} to'plamning o'zi;
- c) T_{nml} jadvalning test to'plami;
- d) T_{nml} barcha tupikli (ilojsiz) test jadvallar to'plami;

2. O'xshashlik funksiyasi. Aytaylik S va S_q qatorlar berilgan bo'lsin. Ushbu qatorlarning qismlari sifatida $\tilde{w}S$ va $\tilde{w}S_q$ larni qaraymiz. S qatorning \tilde{w} qismi deb S qatorning shunday ismi tushuniladiki, bunda S qatorda uchraydigan bir nechta belgilar qaraladi.

A algoritmining ikkinchi bosqichida $\tilde{w}S$ va $\tilde{w}S_q$ qatorlar orasidagi yaqinlashish funksiyasi beriladi. Bu funksiyalar $r(\tilde{w}S, \tilde{w}S_q)$ ko'rinishda belgilanadi va bu funksiya mos qatorlarning "o'xshashlik" darajasini bildiradi.

$r(\tilde{w}S, \tilde{w}S_q)$ funksiyaga misollar:

$$a) \quad r(\tilde{w}S, \tilde{w}S_q) = \begin{cases} 1, & \text{agar } \tilde{w}S = \tilde{w}S_q \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{agar } \tilde{w}S \neq \tilde{w}S_q \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

Bu misoldan ko'rinadiki, qism qatorlar o'xshash bo'ladi, agarda ular o'zaro mos tushsa.

b) agar $\tilde{w}S = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_k)$, $\tilde{w}S_q = (\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k)$ uchun

$|\alpha_1 - \beta_1| \leq \varepsilon_1, |\alpha_2 - \beta_2| \leq \varepsilon_2, \dots, |\alpha_k - \beta_k| \leq \varepsilon_k$. bajarilsa, u holda o'xshashlik funksiyasi sifatida quyidagini olishimiz mumkin:

$$r(\tilde{w}S, \tilde{w}S_q) = \begin{cases} 1, & \text{agar } \tilde{\rho}(S, S_q) \leq \varepsilon \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{agar } \tilde{\rho}(S, S_q) > \varepsilon \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

Bu yerda $\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_k, \varepsilon$ musbat son va $\tilde{\rho}(S, S_q)$ bajarilmagan tengsizliklarning soni.

Masalan bizga arab alifbosidagi nuqsonli bir harf berilgan bo'lsin.



1-rasm. Nuqsonli harf



2-rasm. Harfning to'liq ko'rinishi

Bunda nuqsonli harfni qayta tiklash uchun yuqoridagi o'xshashlik funksiyasidan foydalaniladi. Berilgan harfning barcha belgilari kiritiladi va o'chib ketgan qismining mos belgilarini boshqa shunga o'xshash belgilar bilan solishtiriladi. To'plam ostilari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$C_n^{n_0} = \frac{n!}{n_0(n-n_0)!} \quad (n_0 \leq n, n - \text{belgilar soni})$$

Xususiyl holda S^* obyektning qaysi sinfga tegishli ekanligini aniqlash uchun S^* obyektini K_1 va K_2 sinflarning barcha obektlari bilan $n_0=1$ va $n_0=2$ bo'lganda $C_6^1 = \frac{6!}{1(6-1)!} = 6$ (1-jadval) $C_6^2 = \frac{6!}{2(6-2)!} = 15$ (2-jadval) to'plam ostilari bo'yicha taqqoslaymiz.

1-jadval

		a_1	a_2	a_3	a_4	a_5	a_6
K ₁	S ₁	1	0	0	1	0	0
	S ₂	0	0	1	0	1	1
	S ₃	1	1	0	0	0	1
	S ₄	0	1	1	0	1	0
	S ₅	0	0	1	1	1	1
	S ₆	1	0	0	0	0	0
K₁₁=16		3	2	3	2	3	3
K ₂	S ₇	0	1	0	1	1	1
	S ₈	1	0	0	1	0	1
	S ₉	0	1	1	0	0	0
	S ₁₀	1	0	0	1	1	1
	S ₁₁	1	1	1	1	0	0
	S ₁₂	1	0	1	0	1	1
K₁₂=21		4	3	3	4	3	4

2-jadval

		a_{12}	a_{13}	a_{14}	a_{15}	a_{16}	a_{23}	a_{24}	a_{25}	a_{26}	a_{34}	a_{35}	a_{36}	a_{45}	a_{46}	a_{56}
	S ₁	10	10	10	10	10	00	00	00	10	10	00	00	00	10	00
	S ₂	01	00	10	11	10	01	00	10	00	10	01	00	10	00	10

K ₁	S ₃	11	10	10	11	10	01	00	10	10	10	01	00	10	10	10
	S ₄	10	11	10	10	11	00	01	01	11	11	00	01	01	11	01
	S ₅	01	01	11	11	11	11	11	11	01	11	11	11	11	01	11
	S ₆	11	11	00	01	01	01	01	11	11	01	01	01	11	11	11
K ₂	S ₇	00	00	11	10	10	10	10	00	00	10	10	10	00	00	00
	S ₈	10	11	01	00	01	10	11	01	11	01	10	11	01	11	01
	S ₉	10	10	10	10	10	00	00	00	10	10	00	00	00	10	00
	S ₁₀	00	01	00	00	01	00	01	01	01	01	00	01	01	01	01
	S ₁₁	01	00	01	01	00	11	10	10	00	00	11	10	10	00	10
	S ₁₂	10	11	10	10	11	00	01	01	11	11	00	01	01	11	01
S*	10	11	11	10	11	01	01	00	01	11	10	11	10	11	01	

Quyidagi jadval asosida berilgan harfning (S obyektini) qaysi sinfga tegishli ekanligini aniqlash uchun S* obyektini K_1 va K_2 sinflarning barcha obyektlari bilan $\{1,2,\dots,n\}$ to'plamlarning barcha mumkin bo'lgan to'plam ostilarida taqqoslab chiqamiz.

Keyingi jarayon qolgan bosqichlarda amalga oshiriladi.

3. Fikserlangan tayanch to'plam tizimi asosida qatorlar bo'yicha bahoni hisoblash. Algoritmning uchinchi bosqichida baholashning sonli xarakteristikalar beriladi. Baholashning sonli xarakteristikalar $\tilde{\omega}S$ va $\tilde{\omega}S_q$ qatorlar bo'yicha hisoblangan o'xshashlik funksiyalarning qiymatlari orqali aniqlanadi, bu yerda $\tilde{\omega}$ tanlab olingan tayanch to'plamga to'g'ri keladi. Bundan tashqari baholash T_{mnl} jadvaldagi o'rnatilgan qatorlar bo'yicha hosil qilingan "tashqi parametrlar" ga bog'liq bo'lishi mumkin.

Masalan bunday parametrlar sifatida S_q obyektning o'xshashlik darajasi yoki namunaliligini qarash mumkin.

4. Fiksirlangan tayanch to'plam asosida har bir sinf uchun bahoni hisoblash. Belgilashda oddiylikka erishish uchun T_{mnl} jadvaldagi S_1, S_2, \dots, S_m qatorlarni o'z ichiga oluvchi K_1 sinf uchun baholashni qaraymiz. Aytaylik $\tilde{\omega}\Gamma(S, S_1), \tilde{\omega}\Gamma(S, S_2), \dots, \tilde{\omega}\Gamma(S, S_{m_1})$ hisoblangan qiymatlarda ushbu sinf uchun baholar sifatida quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$\psi[\tilde{\omega}\Gamma(S, S_1), \tilde{\omega}\Gamma(S, S_2), \dots, \tilde{\omega}\Gamma(S, S_{m_1})] = \Gamma_1(\tilde{\omega}).$$

ψ funksiyaga misollar keltiramiz:

$$a) \Gamma(\tilde{\omega}) = \sum_{q=1}^{m_1} \tilde{\omega}\Gamma(S, S_q);$$

$$b) \Gamma(\tilde{\omega}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } \sum_{q=1}^{m_1} \tilde{\omega}\Gamma(S, S_q) \geq r \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda;} \end{cases}$$

bu yerda r – berilgan parametr.

5. Tayanch to'plamlar tizimi asosida K_u sinf uchun baho. Ω_A tayanch to'plamlar tizimini qaraymiz. 4- bosqichga binoan har bir $M_{\tilde{\omega}} \in \Omega_A$ element uchun $\Gamma_u(\tilde{\omega})$ bahoni hosil qilamiz. $\Gamma_u(S)$ bahoni quyidagi usullardan biri bilan aniqlaymiz:

a) $\Gamma_u(S) = \sum_{M_{\tilde{\omega}} \in \Omega_A} \Gamma_u(\tilde{\omega});$

b) $M_{\tilde{\omega}}$ to'plamning har bir elementi uchun $\varphi(\tilde{\omega})$ funksiyaning sonli xarakteristikasi sifatida $\Gamma_u(S) = \sum_{M_{\tilde{\omega}} \in \Omega_A} \varphi(\tilde{\omega})\Gamma_u(\tilde{\omega})$ hosil qilamiz.

Masalan $\varphi(\tilde{\omega})$ funksiya sifatida $M_{\tilde{\omega}}$ tayanch to'plamning muhimlik darajasini keltirish mumkin.

Taqqoslash natijasida quyidagi jadval hosil bo'ldi:

3-jadval

		a_{12}	a_{13}	a_{14}	a_{15}	a_{16}	a_{23}	a_{24}	a_{25}	a_{26}	a_{34}	a_{35}	a_{36}	a_{45}	a_{46}	a_{56}
K ₁	S ₁	1	0	0	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0	0	0
	S ₂	0	0	0	0	0	1	0	0	0	0	0	0	1	0	0
	S ₃	0	0	0	0	0	1	0	0	0	0	0	0	1	0	0
	S ₄	1	1	0	1	1	0	1	0	0	1	0	0	0	1	1
	S ₅	0	0	1	0	1	0	0	0	1	1	0	1	0	0	0
	S ₆	0	1	0	0	0	1	1	0	0	0	0	0	0	1	0
K₂₁=23		2	2	1	2	2	3	2	1	1	2	0	1	2	1	1
K ₂	S ₇	0	0	1	1	0	0	0	1	0	0	1	0	0	0	0
	S ₈	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	0	1	1
	S ₉	1	0	0	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0	0	0
	S ₁ 0	0	0	0	0	0	0	1	0	1	0	0	0	0	0	1
	S ₁ 1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	0	0
	S ₁ 2	1	1	0	1	1	0	1	0	0	1	0	0	0	1	1
K₂₂=25		3	2	1	3	1	0	2	2	1	1	2	1	1	2	3

6. Algoritm uchun hal qiluvchi qoidaning berilishi. Faraz qilaylik, tayanch to'plamlar tizimi asosida S qatori uchun $\Gamma_1(S), \Gamma_2(S), \dots, \Gamma_l(S)$ qiymatlar hisoblangan bo'lsin. Algoritmning hal qiluvchi qoidasi kattaliklar ma'lumotlarining funksiyasini aks ettiradi. F funksiya aniqlanish sohasi $0, 1, 2, \dots, l$ dan iborat.

Agar $F[\Gamma_1(S), \Gamma_2(S), \dots, \Gamma_l(S)] = u, 1 \leq u \leq l$, bo'lsa, u holda S qator K_u sinfga qarashli bo'ladi.

Agar $F[\Gamma_1(S), \Gamma_2(S), \dots, \Gamma_l(S)] = 0$, bo'lsa, u holda algoritm S qatorni birorta

ham sinfiga tegishli bo'lmaydi.

3-jadvalga muvofiq natija quyidagicha bo'ladi:

$$K_1 = \sum_{i=1}^2 K_{i1} = 16 + 23 = 39.$$

$$K_2 = \sum_{i=1}^2 K_{i2} = 21 + 25 = 49.$$

